

TALABALARDA ILMIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Nishonova Aziza Mirzaxmadovna
NAMDU doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasi asosida ishlab chiqilgan metodikaning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilgan. Tadqiqot davomida Farg'ona viloyati oliy ta'lim muassasalari talabalari ishtirokida o'tkazilgan kuzatuv va eksperimental tajribalar natijasida hamkorlik asosidagi darslar ilmiy tahlil qilish, fikrni asoslash, matn ustida ishlash va mustaqil ilmiy izlanishga tayyorlik ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishi isbotlandi. Maqolada hamkorlik yondashuvining ilmiy asoslari, uning filologik ta'limdagi afzalliklari va amaliy qo'llanishi batafsil yoritiladi.

Kalit so'zlar: hamkorlik pedagogikasi, ilmiy dunyoqarash, filologiya ta'limi, interaktiv metodlar, mustaqil fikrlash, analitik tafakkur, tajriba-sinov, talaba faolligi.

СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИКИ СОТРУДНИЧЕСТВА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты методики формирования научного мировоззрения у студентов филологических направлений на основе педагогики сотрудничества. На основе наблюдений и экспериментального исследования, проведённого в вузах города Ферганской области, установлено, что занятия, организованные в формате сотрудничества, эффективно развивают навыки научного анализа, аргументации, работы с текстами и готовность к самостоятельной научной деятельности. В статье также раскрываются научные основы педагогики сотрудничества и её преимущества в филологическом образовании.

Ключевые слова: педагогика сотрудничества, научное мировоззрение, филологическое образование, интерактивные методы, самостоятельное мышление, аналитическое мышление, эксперимент, активность студентов.

WAYS TO USE COLLABORATIVE PEDAGOGY TO DEVELOP A SCIENTIFIC WORLDVIEW IN STUDENTS

Annotation: This article examines the theoretical and practical aspects of a methodology designed to develop scientific worldview among philology students through collaborative pedagogy. Based on observational and experimental studies conducted in higher educational institutions in Fergana region, it was found that lessons organized within a collaborative framework significantly enhance students' analytical thinking, argumentation skills, textual analysis abilities, and readiness for independent scientific research. The article

also explores the scientific foundations and pedagogical advantages of the cooperative approach in philological education.

Keywords: *collaborative pedagogy, scientific worldview, philological education, interactive methods, independent thinking, analytical skills, experiment, student engagement.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi jamiyatning tezkor rivojlanishiga moslashgan holda, talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, tanqidiy yondashuv va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ilmiy tafakkur, mantiqiy mushohada yuritish, dalillangan fikr bildirish ko'nikmalari ularning kasbiy shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, hamkorlik pedagogikasi prinsiplari asosida o'qitish ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega bo'lib, bu borada metodik yondashuvlar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

UNESCO (2023) hisobotida qayd etilishicha, ilmiy tafakkur va tadqiqotga asoslangan ta'lim yondashuvlari joriy etilgan oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan talabalarning 68 foizi mustaqil ilmiy faoliyat yuritish ko'nikmasini shakllantirgan bo'lsa, an'anaviy usulda ta'lim olayotganlar orasida bu ko'rsatkich 37 foizni tashkil etgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, respublikadagi filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning 52 foizi ilmiy maqola yozish va ilmiy nutqni shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa, talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish borasidagi metodik yondashuvlarni takomillashtirish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Hamkorlik pedagogikasi – bu talaba va o'qituvchi o'rtasidagi teng huquqli, o'zaro ishonch va mas'uliyatga asoslangan o'quv faoliyatini tashkil etishga qaratilgan metod bo'lib, unda talabalar o'zaro fikr almashadi, muammoni hal qilishda jamoaviy yondashuv asosida qatnashadi. Ushbu metodologiya orqali filologiya talabalarining ilmiy fikrlashini faollashtirish, analitik tafakkurini rivojlantirish va ilmiy ifoda qilish ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniyati mavjud. Mazkur maqolada aynan hamkorlik pedagogikasining imkoniyatlari tahlil qilinib, uning asosida filologiya yo'nalishidagi talabalar ilmiy

dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ishlab chiqiladi. Shu orqali nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ta'lim samaradorligini oshirishg

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy pedagogik paradigmalarda hamkorlikka asoslangan o'qitish modeli ilmiy tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. AQSh va Yevropa davlatlarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hamkorlik pedagogikasi orqali talabalar o'rtasida o'zaro muloqot, ilmiy mushohada, tahliliy fikrlash va izlanish ko'nikmalari samarali rivojlanadi [1, p. 72]. Masalan, J. Bransford, A. Brown va R. Cocking tomonidan tayyorlangan "How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School" nomli ilmiy ishda ta'lim jarayonining neyropsixologik asoslari va hamkorlik faoliyatining roliga e'tibor qaratiladi. Ular guruhli ishlash, tajriba almashish va savol-javob texnikalarining ilmiy tafakkur shakllanishiga bo'lgan ijobiy ta'sirini tajribalar bilan asoslaydi [2, p. 49]. Barbara Rogoff o'zining "The Cultural Nature of Human Development" asarida hamkorlik muhitining shaxs rivojida o'rnini, ayniqsa, madaniyat va til bilan bog'liq kontekstda tahlil qiladi. Uning fikricha, o'zaro hamkorlik talabaning ilmiy qarashlarini ijtimoiy anglash orqali mustahkamlaydi [3, p. 105]. Paul A. Kirschner va Jeroen van Merriënboer ham o'z izlanishlarida hamkorlikli ta'lim texnologiyalarining metakognitiv faollikka va ilmiy-analitik fikrlashga ta'sirini ilmiy dalillar bilan yoritganlar [4, p. 63].

Rossiyalik olimlar ham hamkorlik asosida ta'lim jarayonini tashkil etish masalasini chuqur o'rgangan. Jumladan, V.A. Slastyonin, I.F. Isaev va E.N. Shiyonov tomonidan yozilgan "Pedagogika" darsligida talaba shaxsining shakllanishida subyekt-subyekt munosabatlari orqali ongli ishtirokni kuchaytirish yo'llari tahlil etilgan [5, p. 91]. N.V. Kuzmina o'z tadqiqotlarida o'qituvchining shaxsiy namunasi va ilmiy madaniyati talabalarda ilmiy dunyoqarash shakllanishida hal qiluvchi omil ekanligini ta'kidlaydi [6, p. 67]. Shuningdek, L.N. Borisovning filologik ta'limga oid tadqiqotlarida hamkorlikdagi faoliyat (loyiha asosidagi tahlil, jamoaviy muhokama, matn asosidagi izlanishlar) orqali talabalar mustaqil ilmiy fikr yuritishga jalb etilishi amaliy misollar bilan isbotlangan [7, p. 132].

Milliy ilmiy maktab vakillari tomonidan ham hamkorlik pedagogikasi asosida ilmiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha samarali izlanishlar olib borilgan. S. Tursunov o'zining 2019-yildagi ishlarida zamonaviy darsda hamkorlik muhitini shakllantirish yo'llarini ochib bergan. U "Aqliy hujum", "fikrlar almashinuvi", "rolli o'yinlar" kabi interaktiv metodlarning ta'sirini tahlil qiladi [8, p. 44]. N. Sayfiddinovaning izlanishlarida filologiya yo'nalishidagi talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda "debate", "klaster" va "grafik model" usullari eksperimental asosda sinovdan o'tkazilib, ijobiy natijalar qayd etilgan [9, p. 29]. M.X. Tursunova esa hamkorlik asosida olib borilgan darslarda tilshunoslik fanlari bo'yicha ilmiy tahlil qilish, so'z boyligini ilmiy izohli uslubda ifodalash va mulohazalilikni shakllantirish mexanizmlarini yoritib bergan [10, p. 77]. Xulosa qilib aytganda, xorijiy, MDH va milliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, hamkorlik pedagogikasi filologiya talabalari uchun ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning samarali metodik asosidir. Mazkur metodlar nafaqat bilim berishga, balki talabaning mustaqil ilmiy faoliyat olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [11, p. 84].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasi imkoniyatlarini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqotda nazariy va amaliy metodlar uyg'unligiga asoslanildi. Nazariy asos sifatida pedagogik-psixologik yondashuvlar, hamkorlik ta'limi kontsepsiyasi va ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilindi. Amaliy bosqichda esa kuzatuv, suhbat, anketa so'rovi va eksperimental darslar orqali o'rganilgan metodik yondashuvlar samaradorligi baholandi. Tajriba-sinov ishlari "kontrol va eksperimental guruhlar" modeli asosida tashkil etilib, ularning natijalari taqqoslovchi tahlil usuli bilan o'rganildi. Natijalar statistik usullar orqali umumlashtirilib, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

NATIJALAR

Tadqiqotning asosiy maqsadi — filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasi asosida tuzilgan metodikaning samaradorligini aniqlash bo'ldi. Ilmiy

dunyoqarash – bu shaxsning atrof-muhit va jamiyatga nisbatan ilmiy asoslangan, izchil, mantiqiy va tahliliy yondashuvga asoslangan fikrlash tizimidir. Bu yondashuv ayniqsa filologiya ta'limi uchun zarur, chunki u til hodisalarini tahlil qilish, adabiy matnlarni ilmiy asosda sharhlash, tanqidiy baholash va g'oyaviy xulosalar chiqarishni talab etadi.

Hamkorlik pedagogikasi bu jarayonda metodik platforma sifatida xizmat qiladi. Uning asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat:

1. Talaba-subyekt sifatida qaraladi, u bilimni tayyor holatda emas, balki mustaqil izlanish, muhokama, fikr almashish va jamoaviy qaror orqali egallaydi;
2. O'zaro muloqotli muhit yaratiladi, bunda o'qituvchi — yo'naltiruvchi, talaba esa faol ishtirokchi;
3. Didaktik birliklar – ya'ni klasterlar, loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar, jamoaviy muhokama kabi metodlar orqali darslar tashkil etiladi;
4. Fikrni ilmiy asoslash, izohlash, dalillash va umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Tajriba o'tkazish obyekti va metodik asos

Tadqiqotning amaliy bosqichi Farg'ona viloyatida, Denov tadbirkorlik va pedagogika institute, Namangan davlat pedagogika instituti, 3 ta oliy ta'lim muassasasi (Farg'ona viloyatida, Denov tadbirkorlik va pedagogika institute, Namangan davlat pedagogika instituti)da filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan 2-3-bosqich talabalari ishtirokida amalga oshirildi. Umumiy ishtirokchilar soni — 132 nafar bo'lib, ular tasodifiy tanlov asosida 2 ta guruhga ajratildi:

1. Eksperimental guruh (EG) — 66 nafar talaba;
2. Nazorat guruhi (NG) — 66 nafar talaba.

Eksperimental guruhda 12 haftalik hamkorlikka asoslangan metodika asosida mashg'ulotlar tashkil etildi. Bunda quyidagi metodlar ketma-ketlikda tatbiq etildi:

1-jadval: Hamkorlik pedagogikasi asosida bosqichma-bosqich metodik faoliyatlar jadvali

Bosqich	Hafta	Amalga oshirilgan faoliyat	Metodik yondashuv	Kutilgan natijalar
1-bosqich	1-hafta	Ilmiy terminologiya bilan ishlash	Klaster metodi, guruhli ishlash	Ilmiy atamalarni to'g'ri tushunish va qo'llash, asosiy tushunchalarni farqlash
2-bosqich	3-hafta	Matn tahlili va muhokama	Debate, rolli o'yinlar, sinf ichida diskussiya	Matn asosida fikr bildirish, tahlil qilish, nuqtai nazarni dalillash
3-bosqich	6-hafta	Mini-loyihalar asosida izlanish	Jamoaviy loyiha, muammoli vaziyatni hal qilish	Mustaqil ilmiy izlanish, mavzuga doir ma'lumotlarni topish va tahlil qilish
4-bosqich	9-hafta	Fikrlarni asoslash va dalillash	Analitik tahlil mashg'ulotlari, "Aqliy hujum"	Mantiqiy asoslash, dalillar bilan fikrni mustahkamlash, xulosa chiqarish
5-bosqich	12-hafta	Ilmiy maqola yozish va taqdimot	Individual ishlash, peer-assessment (o'zaro baho)	Ilmiy uslubda yozish ko'nikmalari, ifoda madaniyati, taqdimot qilish malakasi

Nazorat guruhida esa an'anaviy ma'ruza, seminar va og'zaki savol-javob shaklida darslar davom etdi.

Kuzatuv va baholash mezonlari

O'quv jarayonidan so'ng talabalarning quyidagi ko'rsatkichlari baholandi:

1. Ilmiy tahlil qobiliyati (matn asosida)
2. Ilmiy ifoda madaniyati (og'zaki va yozma)
3. Fikrni asoslash va dalillash
4. Maqola yozish va izlanish yuritishdagi mustaqillik

Baholash uchun 100 ballik tizim asosida diagnostik test, ilovaviy esse va mini-tadqiqot ishlari tahlil qilindi. Quyidagi jadval natijalarni ifodalaydi:

2-jadval:Tadqiqot natijalari

Ko'rsatkich nomi	Eksperimental guruh (EG)	Nazorat guruhi (NG)
Ilmiy tahlil qobiliyati	86.3%	61.5%
Ilmiy nutq (yozma/og'zaki)	82.4%	58.9%
Fikr asoslash va xulosa chiqarish	79.1%	52.3%
Mustaqil izlanish ko'nikmasi	84.7%	55.8%

So'rovnoma natijalariga ko'ra esa EGdagi talabalar 92% holatda o'zlarida ilmiy tafakkurga oid ijobiy o'zgarishlar bo'lganini bildirgan. Talabalarning 87 foizi jamoaviy ishlash, muloqotli muhit va o'z fikrini dalillash imkoniyatlari ko'payganini e'tirof etgan. Nazorat guruhidagi bu ko'rsatkich atigi 53% ni tashkil etdi.

Tahliliy xulosa

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki:

1. Hamkorlik pedagogikasi ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda an'anaviy yondashuvlarga nisbatan 25–30% yuqori samaradorlikka ega;
2. Talabalarda ilmiy muammoni qo'yish, fikrni asoslash, bahslashish madaniyati va izchil fikrlash faol shakllanadi;
3. Hamkorlikda faoliyat olib borish, ayniqsa matn ustida ishlashda — filologik tafakkur, mantiqiy bog'liqlik va muammoli yondashuvni kuchaytiradi;
4. Mustaqil ilmiy ishlarga bo'lgan qiziqish va ishtiyoq keskin oshadi.

Bu holatlarning barchasi ilmiy dunyoqarashning individual emas, balki ijtimoiy-hamkorlikli jarayon sifatida shakllanishini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

Hamkorlik pedagogikasi — bu o'zaro faoliyatga asoslangan ta'limiy muhit bo'lib, u talabalarni mustaqil fikrlashga, ilmiy izlanishga va analitik yondashuvga yo'naltiradi. Ushbu yondashuv filologiya kabi ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarda

ayniqsa dolzarb bo'lib, unda til, adabiyot va madaniyat hodisalarini ilmiy-nazariy tahlil qilish ko'nikmalari asosiy o'rinni egallaydi. Tadqiqot davomida olingan natijalar ushbu nazariy qarashlarning amaliy jihatdan ham to'g'riligini ko'rsatdi. Muhokama jarayonida aniqlanganki, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda talabaga passiv bilim berish emas, balki uni bilim egallash jarayonining faol subyekti sifatida jalb qilish zarur. Aynan hamkorlikka asoslangan metodlar bunga erishishning eng samarali vositalaridan biri ekanligi tajribalar orqali isbotlandi. Eksperimental guruhdagi talabalar o'zaro muhokama, jamoaviy tahlil, fikrlar almashinuvi, muammoli vaziyatlarda qaror chiqarish va matn asosida ilmiy fikr ilgari surish orqali nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yutuqlarga erishdi. Ushbu metodika zamonaviy pedagogika tamoyillari — konstruktivizm, subyekt-subyektli yondashuv, refleksiya va ijtimoiy faoliyat asoslariga tayanadi. Ayniqsa, Barbara Rogoff (2003) va Paul Kirschner (2018) kabi xorijiy olimlarning tadqiqotlarida ta'lim — bu individual jarayon emas, balki ijtimoiy o'zaro aloqalarning mahsuli ekani ta'kidlangan bo'lib, mazkur tajriba natijalari bu yondashuvlarni milliy kontekstda ham muvaffaqiyatli qo'llash mumkinligini tasdiqladi. Shuningdek, talabalar faoliyatida kuzatilgan o'zgarishlar (ilmiy nutq madaniyati, matn tahlil qilish, dalillash, fikrni asoslash, mustaqil izlanish malakalari) ularning shaxsiy va kasbiy shakllanishida ham muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Ilmiy dunyoqarash esa bu jarayonning yakuniy natijasi sifatida talabaning hayotiy, kasbiy va ilmiy faoliyatida asosiy yo'naltiruvchi omilga aylanadi. Muhokama shuni ko'rsatadiki, hamkorlik pedagogikasi asosida tuzilgan metodika filologiya ta'lim yo'nalishida quyidagi yutuqlarni ta'minlaydi:

1. O'quv jarayonini talaba markaziga yo'naltiradi;
2. Nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga bog'laydi;
3. Ilmiy fikrlash, tadqiqot olib borish va muloqot madaniyatini shakllantiradi;
4. Talabaning o'z-o'zini anglash, baholash, refleksiya qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi;
5. Mustaqil ilmiy ishlarga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi.

Biroq shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bu yondashuvni muvaffaqiyatli qo'llash uchun o'qituvchi metodik tayyorgarlik, psixologik yondashuv, didaktik

vositalar va interaktiv vositalardan samarali foydalanish malakasiga ega bo'lishi zarur. Shu bilan birga, talabalarning faolligini rag'batlantiruvchi baholash mezonlari, ochiq muhokama muhiti, reflektiv mashg'ulotlar tizimi muntazam qo'llanishi kerak. Shunday qilib, tadqiqot muhokamasi shuni ko'rsatmoqdaki, hamkorlik pedagogikasi asosida ishlab chiqilgan metodika filologiya talabalari uchun ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, uni nafaqat tajriba doirasida, balki tizimli ravishda o'quv dasturlariga integratsiyalash zarurligini taqozo etadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Ilmiy dunyoqarash – bu shunchaki bilimga asoslangan tushunchalar majmuasi emas, balki talabaning olamni ilmiy asosda idrok etishi, hodisalarni tahlil qila olishi, muammolarni aniqlash va ularning yechimini asoslashga qodir bo'lishidir. Filologiya yo'nalishida bu dunyoqarash ayniqsa zarur bo'lib, matn, til va adabiy hodisalarni nazariy va tahliliy yondashuv orqali anglashni taqozo etadi.
2. Hamkorlik pedagogikasi — ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda metodik asos sifatida yuqori samaradorlikka ega. Bunda talaba faqat bilim iste'molchisi emas, balki izlanishchi, fikr yurituvchi, tahlil qiluvchi va muloqot qiluvchi faol subyekt sifatida shakllanadi.
3. O'tkazilgan eksperimental tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, hamkorlik asosida tashkil etilgan darslarda ishtirok etgan talabalar nazorat guruhiga nisbatan:
 - Ilmiy tahlil qilish (25% ga yuqori),
 - Matn asosida fikr yuritish (27% ga yuqori),
 - Mustaqil izlanish olib borish (29% ga yuqori),
 - Ilmiy ifoda va fikrni asoslash (30% ga yuqori) kabi ko'rsatkichlarda aniq ustunlikka ega bo'lishgan.
4. Hamkorlik yondashuvi talabalarda metakognitiv tafakkur, refleksiya, interaktiv muloqot, dalillangan fikr bildirish, va jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ularning shaxsiy va kasbiy o'sishiga xizmat qiladi.

5. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, hamkorlik pedagogikasiga asoslangan metodikani o'quv dasturlariga tizimli ravishda integratsiyalash orqali filologiya yo'nalishidagi talabalarda:

- Ilmiy dunyoqarash;
- Mustaqil tadqiqot olib borish madaniyati;
- Tahliliy va ijodiy fikrlash;
- Ilmiy matnlar bilan samarali ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

6. Biroq, bu yondashuvni amaliyotda qo'llashda o'qituvchining metodik tayyorgarligi, baholash mezonlarining yangilanishi, talabalar faolligini rag'batlantiruvchi muhit yaratish zarurligi ham aniqlangan muhim omillar sirasiga kiradi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot hamkorlik pedagogikasi asosida tuzilgan metodik yondashuvning filologiya talabalari uchun ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda samarali, ilmiy-nazariy asosli va amaliyotga yo'naltirilgan metodika ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bu yondashuvni boshqa ta'lim yo'nalishlarida ham tatbiq etish va takomillashtirish istiqbollari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bransford, J. D., Brown, A. L., & Cocking, R. R. (2000). *How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School*. Washington, DC: National Academy Press.
2. Rogoff, B. (2003). *The Cultural Nature of Human Development*. Oxford University Press.
3. Kirschner, P. A., & van Merriënboer, J. J. G. (2018). Do Learners Really Know Best? Urban Legends in Education. *Educational Psychologist*, 52(3), 133–144.
4. Slavin, R. E. (1996). *Research on Cooperative Learning and Achievement: What We Know, What We Need to Know*. Baltimore: Johns Hopkins University, Center for Research on the Education of Students Placed at Risk.
5. Slastyonin, V. A., Isaev, I. F., & Shiyanov, E. N. (2013). *Pedagogika*. Moskva: Akademiya.
6. Kuzmina, N. V. (2011). *Professionalizm lichnosti prepodavatelya vysshey shkoly: kompetentnostnyy podkhod*. Sankt-Peterburg: Lan'.
7. Borisova, L. N. (2015). Osobennosti razvitiya nauchnogo myshleniya studentov-filologov. *Vestnik Pedagogiki i Psikhologii*, (2), 45–49.
8. Tursunov, S. (2019). Zamonaviy darsda hamkorlik muhitini shakllantirishning metodik asoslari. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar*, (4), 120–124.
9. Sayfiddinova, N. (2021). Filologiya talabalari uchun ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda interaktiv metodlarning roli. *Pedagogik izlanishlar*, (3), 77–82.

10. Tursunova, M. X. (2022). Hamkorlik asosida o'qitishning filologik fanlardagi pedagogik imkoniyatlari. *Uzbek Journal of Pedagogical Research*, 2(1), 33–39.
11. UNESCO. (2023). *Education for Sustainable Development: A Roadmap*. Paris: UNESCO Publishing.
12. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
13. Dewey, J. (1916). *Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education*. New York: Macmillan.
14. Fullan, M. (2007). *The New Meaning of Educational Change* (4th ed.). New York: Teachers College Press.
15. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2024). *Oliy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv: metodik tavsiyalar*. Toshkent.